



**ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINING  
ZAMONAVIY BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA TA’SIRI**

*Buriyeva Shaxnoza Inat qizi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-bosqich talabasi*

+998886784664

[shaxnozam@gmail.com](mailto:shaxnozam@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast namoyondalaridan biri, taniqli pedagog va alloma, o‘zbek jadidchilik harakatining yetuk vakili Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi, asarlarining mohiyati, yozuvchining pedagogik qarashlari va u ilgari surgan fikrlarning yosh avlod va jamiyat hayotida tutgan o‘rni uning asarlari boshlang‘ich ta’lim jarayoni boshqaruvi va zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Ushbu bebaho asarlarning bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi sabablari haqida ham to‘xtalib o‘tiladi

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, zamonaviy pedagog, ta’lim boshqaruvi, kadrlar tayyorlash. tarbiya, yaxshi xulq, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, uyg‘onish davri

*Tug‘ib tashlash bilan bo‘lmas bola, bo‘lg‘ay balo sizga,*

*Vujudi tarbiyat topsa bo‘lur ul rahnamo sizga*

*Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo‘lur olim,*

*Buzilsa xulqi, Luqmon o‘g‘li bo‘lsa, bo‘lg‘usi zolim.*

**ABDULLA AVLONIY**

O‘zbek pedagogikasining yirik namoyandasasi, ma’rifatparvar olim, shoir va jamoat arbobi Abdulla Avloniy o‘zining ilmiy-ijodiy merosi bilan zamonaviy ta’lim tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. U ta’limni inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va millat kelajagi garovi deb bilgan. Avloniy asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi



kunda boshlang‘ich ta’lim mazmunini boyitishda, tarbiyaviy ishlarda, o‘quv dasturlarini yangilashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Abdulla Avloniy u o‘qish va o‘qitish usuliga yangilik kiritib, yangi maktablar tashkil etgan va maktab o‘quvchilarini savodini chiqarishning yangicha usullarini, o‘zi ochgan maktablarda joriy etgan. U Sharq va G‘arb tillarini o‘rgatish kabi muhim ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni bajarib, o‘zbek millati tarixida o‘chmas iz qoldirgan yetuk pedagogdir. O‘zbek pedagogikasining “otasi” va yurtimizda birinchilardan bo‘lib professor unvoniga sazovor bo‘lgan. Abdulla Avloniy ve u kabi millat fidoyilari merosini o‘rganish bugungi kundagi eng dolzarb va muhim masalalardan biridir. Zotan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbanlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishida qayd etilganidek, “Dunyoda global xavfxatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o‘zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag‘on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot namoyandalarining, oddiy kasb egasi bo‘lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda”.[1;2-3] Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola axloqiga, tarbiyasiga alohida e’tibor beradi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofdagi kishilar katta ahamiyatga ega. Haqiqiy insoniy axloqni o‘zida barqaror qilgan yaxshi kishilar yoshlarga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi va ularning mehr-shafqqatli, sofdil va maqbul bo‘lib tarbiyalanishi uchun zamin hozirlaydi.

Prezidentimiz Yangi O‘zbekiston barpo etish bo‘yicha 2026-yilgacha mo‘ljallagan ustivor vazifalarning dastlabki sifatida aynan ta’lim sohasini belgilab berdi. Maktablarning o‘quv dasturlari, o‘qitish uslubi, darsliklar mazmuni tubdan



qayta ko‘rib chiqilishi, yangilangan tizim, avvalo xorijiy ilg‘or mutaxassislar ekspertizasidan o‘tkazilib, keyin hayotga tatbiq etishi zarurligi ta’kidlandi. Anglashimiz kerakki, mamlakatimiz ta’lim tizimi yangi bosqichga, butunlay yangi davrga qadam qo‘ymoqda.[8;102-104] Jahon ta’lim tizimini milliy ta’lim tarbiya bilan bog‘lab ta’lim tizimizni rivojlantirmoqdamiz Bu yo‘lda Avloniyning pedagogik mahorati shuningdek, milliy tarbiya va ta’lim tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida tarbiya va ta’limni bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan tushunchalar deb ta’riflagan. Uning fikricha, ilm berish bilan birga insonni axloqan komil etib tarbiyalash zarur. Avloniy quyidagi tamoyillarni ilgari surgan:

1. Ilm va tarbiyaning uyg‘unligi – faqat bilim emas, balki tarbiyaviy jihatdan yetuk shaxs tarbiyalash zarur.
2. Milliy g‘urur va Vatanga muhabbat – yosh avlod qalbida milliy qadriyatlar, Vatanparvarlik, istiqlol g‘oyalari mustahkam o‘rnatalishi kerak.
3. Shaxs kamoloti – har bir inson o‘z ustida ishlashi, jismoniy, ma’naviy va aqliy jihatdan rivojlanib borishi kerak.
4. Zamonaviylik va taraqqiyotga ochiqlik – ilm-fanni egallash, texnologiyalarni o‘rganish, dunyoqarashni kengaytirish ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi lozim.

Hozirgi boshlang‘ich ta’limda Avloniy qarashlari o‘z ifodasini topmoqda:

*Darslik va metodikalarda axloqiy tarbiya* – Boshlang‘ich sinflarda axloqiyetik tarbiya berish Avloniy asarlaridagi g‘oyalarga tayanadi. Masalan, “Men va mening fazilatlarim”, “Do‘slik”, “Vatanparvarlik” kabi mavzular orqali Avloniy qarashlari o‘quvchilarga yetkazilmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv – Avloniy ta’limni faqat bilim berish emas, balki hayotga tayyorlash deb bilgan. Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, mustaqil fikrlash, jamiyatda faol ishtirok etish ko‘nikmalari shakllantirilmoqda.



Faol ta’lim metodlari – Avloniy o‘quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga undash tarafdori bo‘lgan. Hozirgi boshlang‘ich maktablarda interfaol metodlar, rolli o‘yinlar, jamoaviy ishlar keng qo‘llanilib, aynan shu g‘oyalar asosida darslar olib borilmoqda.

Vatanparvarlik tarbiyasi – Avloniy “Vatan yo‘lida jon berish – eng oliv saodatdir” deya ta’kidlagan. Bugungi ta’limda o‘quvchilarga milliy g‘urur, tarixiy xotira, o‘zlikni anglash tuyg‘ulari singdirilmoqda.

Abdulla Avloniy birinchi o‘zbek teatri tashkilotchilaridan edi. Teatr uchun bir necha drama yaratdi, ularni rejissyor sifatida sahnalashtirdi. Uning bu faoliyati o‘z mакtabida xor, ifodali o‘qish, musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Abdulla Avloniyning badiiy asarlarni ifodali o‘qish sohasidagi bunday faoliyati tezda Toshkentning usuli qadim va usuli jadid maktablariga ham kirib bordi. Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriylar haqida fikr yuritar ekan, birinchi o‘rinda o‘quvchilarni ko‘zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o‘quvchilardan ko‘ra ko‘proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so‘zlari “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining maqsadini to‘la ifodalaydi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur. Ta’lim ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”. Avloniy yaratgan asarlar hali-hanuz o‘z ahamiyati saqlagan holda, hozirgi zamon darsliklari uchun dasturilamal vazifasini o‘tamoqda.[7;90-92] U asarlar yuksak tarixiy pedagogik mazmunga ega bo‘lgan ta’limiy, qomusiy manbalardir. Shu boisdan ham bu qo‘llanmalarga bo‘lgan qiziqish hamda talab so‘nggi besh



yillikda yanada kuchaydi. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy asarlarining tub mohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, ularda o‘z aksini topgan mehnatsevarlik, vatanparvarlik, adolat, diyonat, insonprvarlik tushunchalariga oid fikrlarning bugungi zamon uchun ham nechog’lik katta ahamiyat kasb etishini ilg’ash mumkin.

Avloniy “axloq ulamosi”ning qarashlari asosida insonlarning axloqini yaxshi va yomon xulqlarga ajratadi, bunga ularning nafs tarbiyasini asos qilib oladi. U yaxshi xulqlarga matonat, nazokat, shijoat, intizom, vijdon, vatanni suymak kabi fazilatlarni kirlitsa, g‘azab, shahvat, jaholat, safohat kabi illatlarni yomon xulqning belgilari deb biladi. Biz pedagog sifatida o‘quvchilarni shu ruhda tarbiyalasak albatta vatanni sevuvchi komil inson bo‘lib chiqadi. Avloniyning ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish g‘oyalarni kuylagan dastlabki she’rlari o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining hamisha bebaho mulki bo‘lib qoladi.[9;237] U bu turkumga mansub she’rlarida o‘zbek mumtoz adabiyotidagi she’riy shakllarni katta ijtimoiy mazmun, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, hajviy ruh va xalqona ohanglar bilan boyitdi. Abdulla Avloniy bolalar uchun ham bir qancha she’r va masallar yozgan. Shoir bu asarlarida maktab yoshidagi bolalarning fikr doirasini kengaytirish, ularda maktab va kitobga, mehnatga, tabiatga, Vatanga muhabbat ta’rifini boshlab,

“Tog‘laridan konlar chiqar, Yerlaridan donlar chiqar...

Havosi o‘ta yoqumlik, Cho‘llari bor toshlik, qumlik,

Toshkand emas, toshqand erur, Kesaklari gulqand erur”, deya bolalarda ona diyorga katta mehr uyg‘otishga erishadi.

Abdulla Avloniy pedagogik merosi bugungi boshlang‘ich ta’lim tizimining tamal toshi sifatida xizmat qilmoqda. Uning g‘oyalari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki amaliy qiymat kasb etadi. Shu boisdan, zamonaviy boshlang‘ich ta’limda Avloniy qarashlarini chuqur o‘rganish va ularni yangicha yondashuv bilan tatbiq etish dolzarb vazifadir. U ta’lim orqali jamiyatni isloh qilish mumkinligini isbotlab bergen buyuk ma’rifatchidir.



## Foydalanimanilgan adabiyotlar:

1. Qatag‘on qurbanlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida /O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 08.10.2020 yildagi F-5598-soni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 08/20/5598/1377-soni.
2. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
3. Abdulla Avloniy(Jadid adabiyoti namoyondalari) - yurt qayg‘usi haqida bebahoh asarlar. – Toshkent: “Zabarjad media”, 2023.
4. Zunnunov, A. Pedagogika tarixi. – Toshkent, 2004.
5. Dolimov U. Milliy uyg’onish pedagogikasi. – T.: NOSHIR, 2012
6. Mukhammadiyev, J. Mamanazarov, S. The issue of spiritual and moral education in the works of Abdullah Avlani and its role in youth education Galaxy international interdisciplinary research journal January, 2024. 117-121-p.
7. Muxammadiyev.J, Mamanazarov.S, Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari maqolasi ERUS jurnali 31-dekabr 2023-yil 18-son 90-92-b.
8. Muxammadiyev.J, Mamanazarov.S, Ta’lim jarayonida shaxsni tarbiyalash imkoniyatlari maqolasi ERUS jurnali 31-dekabr 2023-yil 18-son 102-104-b.
9. Muxammadiyev.J, Mamanazarov.S, Uzluksiz ta’lim tizimidagi shaxs ma’naviyatining shakllanganlik darajasi maqolasi ERUS jurnali 31-dekabr 2023-yil 18-son 237-239-b.
10. Muxammadiyev.J, Mamanazarov.S, Shaxs ma’naviyatini tarbiyalashda ta’lim muassasalari, oila va jamoatchilik hamkorligi yo‘nalishlari maqolasi ERUS jurnali 31-dekabr 2023-yil 18- son 240-242-b
11. Muxammadiyev.J.I Abdulla Avloniy ijodidda ma’naviy-ma’rifiy pedagogik tarbiya masalalari ERUS jurnali 2023-yil 17-maxsus son 225-228-b.
12. Mamanazarov.S.Sh Yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash mexanizmlari, uslublari, shakl va vositalari ERUS jurnali 2023-yil 17-maxsus son 229-232-b